

## ADABIYOTIMIZGA BO‘LGAN QIZIQISHNI OSHIRISHDA BERDAQ ASARLARINING O‘RNI

**Abduhalimova Marjona Alisher qizi**

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

Email: [abduhalimovamarjona@icloud.com](mailto:abduhalimovamarjona@icloud.com)

**Xatamova Nasiba Baxromjon qizi**

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

Email: [xn.tekna04@gmail.com](mailto:xn.tekna04@gmail.com)

**Annotatsiya:** Badiy adabiyotimizda Berdaqning o‘ziga xosligi, Berdaqning ijodiy faolligi haqida fikr mulohaza yuritamiz.

**Аннотация:** В нашей литературе мы размышляем об уникальности Бердака и творческой деятельности Бердака.

**Annotation:** In our literature, we reflect on Berdak’s uniqueness and Berdak’s creative activity.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy muhit, zamon va makonda adabiy muhit, Berdaqning Ahmoq podsho asari.

**Ключевые слова:** Литературная среда, литературная среда во времени и пространстве, Глупый король Бердаха.

**Keywords:** Literary environment, literary environment in time and space, Berdakh’s Foolish King.

Adabiy muhitning vujudga kelishi albatta yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liqdir. Masalan (Lutfiy, Navoiy, Jomiy, va boshqalar), Qoraqalpoq adabiyotida yesa (Jiyan Jirav, Kunxo‘ja, Berdaq, Qulmurod, Gulmurod va b.) yirik shoirlar faoliyati, ijodiy ta’sirida yuzaga keladigan muhit adabiy muhit desak adashmagan bo‘lamiz. “Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”, Shavkat Mirziyoyev.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti tarixda juda murakkab jarayonni bosib o‘tgan adib Berdaq serqirra ijod qilgan vakillaridan hisoblanadi. Asosan, ko‘chmanchilik asosida chorvachilik bilan shug‘ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlik hayotini jabru-sitamlarni boshidan kechirdi. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan joylarda istiqomat qilgan. O‘zlarining milliy davlatlari faqat XX asrdagina vujudga keldi. Qoraqalpoq xalqining yozuviga asosan XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo‘lgan edi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘shiq va dostonlardan iboratdir. Adib Berdaq o‘z asarlarida xalq hayotining fojiiyali va kulguli tarizda sheriy va doston tariqasida gavdalantirishni oiladagi muxitni ochiq tarizda umumlashtirib xalq dardi deb nomlab Xalq uchun sheri orqali ifodalab bergan. Berdaq o‘sh oldiga so‘nggi muammoli Xonlik davrini sahnada gavdalantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Ko‘pincha Berdaq iqtidori, mahorati bir yoki bir necha adabiy tur va janrlarda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Berdaq dostonlari bilan bir katorida hikoyali sheʼrlar ham yozgan. Lekin u o‘zining eng asosiy ijodiy maqsadlarini nazmda, ya’ni she’r va poemalarda to‘liqroq yuzaga chiqargan hamda shu janrlarda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Berdaq o‘zida she’riy ijod kilishga ko‘proq moyillik sezgan, hayotining oxirigacha mazkur adabiy she’riy va dostonlar yozib, xalq orasida jiddiy yutuqlarga erishgan. Berdaq ko‘plab she’r va dostonlarni bitgan bo‘lsada, uning iste’dodi dostonchilik sohasida yanada yorqinroq namoyon bo‘lgan, ulkan samaralar bergan. Berdaq ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari uning she’rlardagi adabiy tur va janrlarning o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Biroq bu o‘ziga xoslik shoirning muayyan janr sohasida xalqning badiiy ijod xazinasida asrlar davomida mavjud bo‘lgan poetik tasvir vositalaridan ijodiy foydalanishiga to‘sqinlik qilmaydi. San’atning ko‘plab tarmoklarga va ayniqsa, baxshichilik va adabiyotning turlarga bo‘linishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida sodir bo‘lgan.

Badiiy ijod taraqqiyoti barcha xalkdarda bir xil izchillikda davom etmagan va shu tufayli xususiyati ham aynan bir xil bo‘lmagan. Alohida bir xalq adabiyotida adabiy tur va janrlarning tug‘ilishi hamda rivoji milliy va estetik taraqqiyoti ehtiyojlari bilan

bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Bunga misol tariqasida Berdaq yashab ijod qilgan davirni oladigan bo‘lsak berdaq ijod qilgan davirda faqatgina davlat amaldorlari saroy amaldorlari xonlarni matx etish ularning kamchiliklarini ham faqat yutiqlik sifatida sherlar bitgan. Berdaq bu uslubdan vos kechib Xalqning mashaqqatlarini ifoda etgan xolda sherlar dostonlar bitgan. U yo bu mamlakatdagi ijtimoiy taraqqiyotning milliy va tarixiy jihatdan o‘ziga xosligi adabiy tur va janrlar sohasida ham ko‘zga tashlanadi.

Shu o‘rinda Qoraqalpoq klassik adabiyotida o‘ziga xos bo‘lgan adib mumtoz adabiyoti taraqqiyotida ulkan demokrat-gumanist shoir “Berdimurod Berdaqning mavqei katta. Berdaq «Shajara», «Ernazar biy», «Oydo‘st biy» va «Ahmoq podsho» dostonlari bilan qoraqalpoq mumtoz poeziyasida dostonchilikning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. «Ahmoq podsho» dostonida tasvirlanishicha, Ahmoq podsho farzand ko‘rmaydi, merosxo‘ri bo‘lmaganidan qayg‘uradi. Uning Gulim ismli xotini qiz ko‘radi. Buni xabar qilish uchun shoh saroyiga Zara nomli cho‘ri xotinni yuboradilar. Podsho bunday «yomon» xabarni, keltirgan cho‘ri xotinni kaltaklashni, qizini esa o‘ldirib, xotinini o‘z qoshiga keltirishni buyuradi. Lekin sadoqatli cho‘ri Zara qiyinchiliklarni yengib, bu xabarni Gulimga yetkazadi. Gulim va uning qizini jallodlar changalidan saqlab qoladilar va ularni yer ostidagi bir qo‘rg‘onda tarbiyalaydilar. Oradan ko‘p vaqtlar o‘tadi. Bo‘yga yetgan shoh qizi Gulzor o‘z otasi bilan uchrashishni istaydi. Qizi Gulzor bilan uchrashgan Ahmoq podsho unga oshiq bo‘lib qoladi. Lekin qiz podsho taklifini rad etadi.

Shunda u qizni itlarga yem qilishga buyuradi. Itlar esa Gulzorga hamla qilish o‘rniga tilga kirib, Ahmoq podshoni qarg‘aydilar. Shundan so‘ng Gulzor zindonga tashlanadi. Keyinroq uni yashirin yo‘l bilan o‘rmonga olib ketib tarbiyalaydilar. Podshoning qilmishlaridan g‘azablangan Gulzor saroyga kirib kelib, o‘z qo‘li bilan Ahmoq podshoni o‘ldiradi. Dostonning qisqacha mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Berdaq bu asarida qarama-qarshiliklarni zo‘r mahorat bilan ochib bergan”. Berdaq o‘zining ushbu dostonida Ahmoq podsho singari zolim shohlarning zulmi va farosatsizligini qattiq tanqid qilgan. “1957-yildan beri Toshkentda bir necha bor o‘tkazilgan qoraqalpoq adabiyoti va san’ati dekadalarida qoraqalpoq adabiyoti va

san'atining shaklan milliy, mazmunan adabiyot bo'lib ravnaq topayotganligini isbot qilib berdi. Qoraqalpoq yozuvchilarining 20-30-yillarda endigina paydo bo'lib mustahkamlanayotgan qoraqalpoq matbuoti organlari atrofiga, jumladan, “Erkin Qoraqalpoq” ro'znomasi atrofiga uyushishlari ularning ijodiy kamolotga erishishlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi”. Adabiyotimizning ko'plab namoyondasi bo'lgan adiblar juda ko'p bo'lib adiblar turli zamon va makonda ijod qilgan. Shu zamon va makondan o'tib kelgan asarlar oltin merosimiz hisoblanadi.

Xulosa o'rnida quydagiya Berdaqning sheri bilan yakunlasak va bu sherga xulosani o'zingiz chiqarsangiz.

Berdimurot, izla, izla,  
Har yo'lini to'g'ri ko'zla,  
Ne so'zasang, yaxshi so'zla,  
Haq diydorin izlar edim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti “Berdaq she'riyatidan” Mirtemir tarjimasini. T.: 1977 y.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
3. [www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz) Qoraqalpoq adabiyoti Qarshi davlat universitetining katta o'qituvchi A.Hamdamov
4. [www.Vikipediya: Adabiy muxit. Maqolalar](http://www.Vikipediya: Adabiy muxit. Maqolalar).